



THE SOCIAL SIGNIFICANCE OF POLITICAL PARTIES ROLE IN ENHANCING THE SPIRITUAL POTENTIAL OF YOUTH

Mekhrinoz Rakhmatova

Associate Professor

Tashkent University of Social Innovation

Uzbekistan, Tashkent

ABOUT ARTICLE

Key words: youth, political party, public oversight, criticism, call to excellence, normative legal act, spirituality, spiritual life, level of spirituality, political literacy, political culture.

Received: 09.05.25

Accepted: 11.05.25

Published: 13.05.25

Abstract: This article extensively examines the social significance of political parties role in enhancing the spiritual potential of youth. The functions of political parties in shaping the spiritual world of young people are critically analyzed. The research methods employed in this article include analysis, synthesis, comparative analogy, and generalization. Additionally, special attention is given to the harmony between politics and spirituality in the worldview of young people.

YOSHLAR MA'NAVIY SALOHIYATINI YUKSALTIRISHDA SIYOSIY PARTIYALAR ROLINING IJTIMOYIY AHAMIYATI

Mexrinoz Raxmatova

Dotsent

Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti

O'zbekiston, Toshkent

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: yoshlar, siyosiy partiya, jamoatchilik nazorati, tanqid, yuksaklikka dav'at, me'yoriy-huquqiy hujjat, ma'naviyat, ma'naviy hayot, ma'naviyat darajasi, siyosiy savodxonlik, siyosiy madaniyat.

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlar ma'naviy salohiyatini yuksaltirishda siyosiy partiyalar rolining ijtimoiy ahamiyati keng miqyosda yoritilgan. Yoshlar ma'naviy olamini shakllantirishdagi siyosiy partiyalarning vazifalari tanqidiy tahlil tarzida ifoda etilgan. Mazkur maqolada analiz, sintez, qiyosiy analogiya, umumlashtirish kabi tadqiqot metodlaridan foydalanilgan. Shuningdek, yoshlar dunyoqarashida siyosat va ma'naviyatning uyg'unligiga alohida e'tibor berilgan.

СОЦИАЛЬНАЯ ЗНАЧИМОСТЬ РОЛИ ПОЛИТИЧЕСКИХ ПАРТИЙ В ПОВЫШЕНИИ ДУХОВНОГО ПОТЕНЦИАЛА МОЛОДЕЖИ

Меҳриноз Рахматова

Доцент

Ташкентского университета социальных инноваций

Узбекистан, Ташкент

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: молодежь, политическая партия, общественный контроль, критика, призыв к совершенству, нормативно-правовой документ, духовность, духовная жизнь, уровень духовности, политическая грамотность, политическая культура.	Аннотация: В данной статье широко освещается социальная значимость роли политических партий в повышении духовного потенциала молодежи. Задачи политических партий в формировании духовного мира молодежи представлены в виде критического анализа. В статье использованы такие методы исследования, как анализ, синтез, сравнительная аналогия и обобщение. Особое внимание уделено гармоничному сочетанию политики и духовности в мировоззрении молодежи.
--	--

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizning dunyo hamjamiyati tizimiga faol integratsiyalashuvi jarayoni uning global siyosiy va ma'naviy jarayonlarda o'ziga xos ahamiyat kasb etishiga olib kelmoqda. Bu yurtimiz farovonligi, uning yuksalishi va demokratik islohotlarning rivoji kabi strategik vazifalarni hayotga tatbiq etish, zamonaviy dunyo talablariga javob beradigan, turli mafkuraviy tahdid va xavf-xatarlarga qarshi tura oluvchi hamda barcha sohadagi milliy manfaatlarini samarali ta'minlash imkonini beruvchi mexanizmni shakllantirishni talab qiladi. Bu jarayonda esa, islohotlarning asosiy prinsip va ustuvor yo'nalishlarini to'g'ri belgilab olish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili Yoshlar ma'naviy salohiyatini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari, siyosiy partiyalar faoliyatiga oid manbalar A.Erkayevning "Ezgulik sari yo'naltirilgan iroda", M.Quronovning "Betakrorimsan, yagonasan, ona vatanim", R.Galeyevning "Духовный потенциал как объект исследования и управления", E.Yusupovning "Inson kamolotining ma'naviy asoslari", T.Alimardonovning "Jamiyatda siyosat va axloq muvozanati muammolari", I.Saifnazarovning "Ma'naviy barkamollik va siyosiy madaniyat" asarlarida o'z ifodasini topgan.

Tadqiqot metodologiyasi Mazkur maqolani tayyorlashda kompleks yondashuv, tizimlilik, umumlashtirish, analogiya kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Hozirgi globallashuv davridagi islohotlar jarayonida yoshlar ma'naviy salohiyatini yuksaltirish ustuvor vazifalardan sanalib, davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Prezident Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: "Hammamizga ayonki, bugungi murakkab globallashuv davrida jamiyatimizda milliy g'oya va mafkuraviy immunitetni kuchaytirish,

yoshlarimizni turli zararli g'oya va tahdidlardan asrash, ularni o'z mustaqil fikriga ega, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalash har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda"[1]. Shu boisdan ham, ma'naviy yangilanishlar jarayonida intellektual salohiyatli, ma'nan yetuk va siyosiy faol yoshlarga ega davlatlarga o'z taraqqiyot yo'lini yanada rivojlantirishga, milliy manfaatlarini himoya qilishga, milliy yuksalishga erishadi.

Mazmuni. Globallashuv sharoitida bunday muhim vazifalarni bajarishda siyosiy partiyalarning o'рни salmoqlidir. Bu borada ayniqsa, mamlakatimizda siyosiy partiyalar faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari yaratilganligi o'zining samarasini bermoqda. Jumladan, siyosiy partiyalarning huquqiy maqomi Konstitutsiyamizning 74-moddasida, ya'ni "partiyalar turli tabaqa va guruhlarining siyosiy irodasini ifodalaydi va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadi"[2] - deb belgilangan. Agar "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi Qonun yurtimizda siyosiy partiyalar faoliyatini yo'lga qo'yib bergan bo'lsa, 1996 yil 12 dekabrda "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonunda siyosiy partiya tushunchasi, uning huquqiy asoslari, faoliyatining asosiy prinsiplari qonuniy asoslab berilgan.

"Siyosiy partiya o'zining huquqiy tabiatiga ko'ra, birinchidan, jamoat birlashmasi, ikkinchidan, jamiyat siyosiy hayotida faol ishtirok etishga yo'naltirilgan institutsional tuzilma, uchinchidan, fuqarolarning siyosiy irodasini ro'yobga chiqarish va o'z vakillari orqali davlat boshqaruvini amalga oshirishga qaratilgan faoliyat turidir"[3]. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va milliy taraqqiyot yo'lini izchil davom ettirishda, ma'naviy ideal yoshlarni tarbiyalashda siyosiy partiyalarning ahamiyati kattadir.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, fuqarolik jamiyatining o'ziga xos qadriyatlaridan biri bu – fuqarolar istak va maqsadlarini demokratik institutlar vositasida davlat tashkilotlari vazifasi darajasiga ko'tarishga erishishdan iboratdir. Siyosiy partiyalar fuqarolik jamiyati institutlaridan biri sifatida mazkur maqsadga erishishda, jumladan, yoshlar manfaatlarini himoya qilishda muhim o'rin tutadi[4]. Mamlakatimizda yoshlar ma'naviy olamini yuksaltirishda siyosiy partiyalar o'z dasturi hamda ular qoshidagi "Yoshlar qanoti" orqali faol ishtirok etib kelmoqda. Siyosiy partiyalar qoshida yoshlar qanotining faoliyat ko'rsatishi bejizga emas. Chunki, yoshlar mamlakatning ulkan salohiyati, jamiyat taraqqiyotining hal qiluvchi kuchidir. Muhimi yoshlarning bor shijoati, imkoniyatlarini to'g'ri yo'naltirish, navqiron avlodni qo'llab-quvvatlash hamda imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoit va qulayliklar yaratishdir. Siyosiy partiyalarning tarkibiy tuzilmasidan "yoshlar qanoti"ning o'rin olishidan ko'zlangan asosiy maqsad ham ana shunda. Shu boisdan ham mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan barcha siyosiy partiyalar tarkibida "yoshlar qanoti" tarkibiy tuzilmasi mavjud.

Biroq, masalaning asosiy mohiyati mazkur tuzilmaning qanday faoliyat olib borayotganligida. Aynan shuning uchun ham Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: “siyosiy partiyalarning yoshlar o‘rtasida olib borayotgan ishlari, partiyalar qoshida tashkil etilgan “Yoshlar qanoti”ning faoliyatini, afsuski, qoniqarli, deb bo‘lmaydi. Vaholanki, bugun mamlakatimizda yashayotgan 10 milliondan ortiq yoshlar hayotida qanchadan-qancha yechilmagan ijtimoiy muammolar borligini barchangiz yaqinda bo‘lib o‘tgan yoshlar qurultoyida yaqqol ko‘rdingiz. O‘zingiz ayting, qaysi siyosiy partiya yoshlar bilan yaqindan, bevosita ish olib boryapti? Ularning dard-u tashvishlarini yechishga intilyapti? Partiyalarning bu borada aniq chora-tadbirlar rejasi, kerak bo‘lsa, strategiyasi bormi? Bor bo‘lsa, nega natijasi ko‘zga tashlanmayapti?”[5], - deb ushbu sohadagi dolzarb muammolarni ko‘rsatgan edi. Shuning uchun jamiyat va davlat hayotida nafaqat siyosiy partiyalar faoliyati bilan bog‘liq huquqiy hujjatlarni, qolaversa milliy qonunchilikni ularga moslashtirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish taqozo etilmoqda. Bunda siyosiy partiyalarni, ayniqsa, partiyalar yoshlar qanotlarini axborot materiallari bilan ta‘minlashning samarali tizimini yo‘lga qo‘yish lozim. Bu jarayonda partiya tomonidan professional tajribali mutaxassislarni jalb etgan holda, tashkillashtiriladigan turli ma‘naviy-ma‘rifiy, siyosiy-huquqiy tadbirlarning ta‘sirchanligi va natijadorligini ta‘minlash muhim ahamiyatga ega. Siyosiy partiyalarning yoshlar qanoti faoliyatini zamon talablariga moslashtirish va jahonning ilg‘or tajribalaridan foydalanishga erishish siyosiy partiyalarning yoshlar hayotidagi rolini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Shu bilan birga bu jarayonda yoshlar parlamenti rolini kuchaytirish, siyosiy partiyalarning yoshlar qanoti faoliyatini OAVda doimiy yoritib borish ishlarini yo‘lga qo‘yishni ham maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Siyosiy partiyalar – siyosiy faol yoshlar, yosh lider siyosatchilarni shakllantirishning muhim asosidir. Dunyo olimlarining fikricha, siyosiy partiyalarning jamiyat hayotida faol ishtirok etishidagi asosiy sabablardan biri – ularning siyosiy yetuk yosh kadrlarni tarbiyalashdagi beqiyos o‘ringa ega ekanligi bilan bog‘lashadi. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, hali insoniyat tarixida partiyalarsiz siyosiy faol yoshlarni tarbiyalashning namunali tarzda shakllantirishning biron-bir vositasi ixtiro qilinmagan. Shunday ekan, yoshlarning siyosiy partiyalar faoliyatida ishtirok etishi bilan ularda siyosiy ko‘nikma va qarashlar shakllanadi hamda shuning vositasida yosh, salohiyatli kadrlarni siyosiy elitaga tayyorlash mumkin. Yangi O‘zbekistonda siyosiy partiyalarning dasturlarida yoshlar ma‘naviy-siyosiy salohiyatini yuksaltirish masalasiga alohida e‘tibor qaratilib, ularning yoshlar qatlamiga munosabatida umumiy jihatlar bo‘lgani holda, o‘z siyosiy platformalariga xos maqsad va vazifalar ham belgilanganligini alohida qayd etish lozim.

Bizningcha, yuqorida ilgari surilgan taklif va tavsiyalar, avvalo, siyosiy partiyalarning yoshlar ma‘naviy salohiyatini yuksaltirishdagi mavjud kamchiliklarini ma‘lum ma‘noda bartaraf

etishda hamda kelajakda ularning yoshlarga oid davlat siyosatini yanada takomillashtirishga ishtirok etishini kuchaytirishga xizmat qiladi. Yoshlarning ma'naviy-siyosiy jihatdan yanada faol bo'lishi va tegishli partiyalarning kelajakdagi faol davomchi mutaxassislari hamda asosiy elitasiga aylanishiga zamin hozirlaydi.

Xulosa va takliflar. “Ma'naviyat” tushunchasining mohiyatini yoshlarimizga oddiy, sodda va kundalik hayotimizda muhim bo'lgan asosiy insoniy fazilatlar orqali tushuntirib borish. Bu vazifani hal qilishda siyosiy institutlar faoliyatini Ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, ta'lim muassasalari, yoshlar faoliyati bilan shug'ullanuvchi bir qator davlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorligini muvofiqlashtirish;

2. Siyosiy institutlar faoliyatida yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishga qaratilgan non'anaviy usullardan keng foydalanish. Siyosiy va ma'naviy hayot o'rtasidagi bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan tadbirlarni demokratik prinsiplar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, siyosiy yetakchilar, buyuk mutafakkirlar, olimlar, mutasavvuf va muhaddis ulamolarning falsafiy qarashlari, ibratli hikmatlari asosida tashkil etish. Bu tadbirlarni hududlar kesimida ko'rsatuvlar, viktorina o'yinlari, “Zakovat” intellektual tanlovlari, ijtimoiy tarmoqlarda “siyosat va ma'naviyat” sahifalarini tashkil etish kabi shakllarda olib borish;

3. Yoshlar ma'naviy salohiyatini yuksaltirishda siyosiy partiyalarning “Yoshlar qanoti” faoliyatiga yangicha, innovatsion yondashuv duch kelayotgan muammolarni amaliy hal etishda muhim rol o'ynaydi. Siyosiy partiyalarning Yoshlar qanoti tomonidan Respublikaning barcha hududlarida “Yoshlar kamoloti – kelajak kafolati” shiori ostida festivallar, konferensiyalar tashkil etishni kuchaytirish;

4. Siyosiy institutlar va jamoat tashkilotlari hamkorligida barcha hududlar kesimida “Donolik va topqirlik – ma'naviy barkamollik mezon” shiori ostida fan, axloq, din, siyosat, huquq, adabiyot va san'atga qiziquvchi yoshlar o'rtasida turli darajadagi tadbirlar, anketa so'rovnomalari, ilmiy maqolalar va badiiy-ijodiy tanlovlarni tashkil etish va ishtirokchilarni rag'batlantirib borishni an'anaga aylantirish;

5. Davlat tashkilotlari, siyosiy partiyalarning “Yoshlar qanoti” va Yoshlar ishlari agentligi hamkorligida Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan “Besh muhim tashabbus” tamoyilini amalga oshirishga qaratilgan tadbirlar samaradorligini monitoring qilish orqali yoshlar ma'naviy salohiyatini yuksaltirib borish;

6. Mahallalarda tashkil etilgan “Yoshlar daftari”da qayd etilgan yoshlar muammolarini o'rganish va ularning moddiy hamda ma'naviy yechimlarini topishda siyosiy institutlar rolini kuchaytirish;

7. Har to'rt yilda bir o'tkaziladigan Xalqaro yoshlar va talabalarning navbatdagi festivalini Toshkent shahrida 2025 yilda o'tkazish;

8. Mamlakatimizda ilmiy, axloqiy, diniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar mezonlari asosida “O‘zbekiston yoshlari taraqqiyoti indekslari”ni ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (Literatura/References)

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-10-09-2020>
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
3. Ro‘zinazarov Sh, Olimov D. Siyosiy partiyalar – fuqarolar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishning muhim ta’sir o‘tkazuvchi vositasi // Fuqarolik jamiyati. 2013. №1 (33). –B.13.
4. Oripov Sh. Yoshlar huquqlari va manfaatlarini himoya qilishda siyosiy partiyalarning roli // Jamiyat va boshqaruv. 2010. №2. –B.40.
5. Mirziyoyev Sh. Parlamentimiz haqiqiy demokratiya maktabiga aylanishi, islohotlarning tashabbuskori va asosiy ijrochisi bo‘lishi kerak // <https://uza.uz/uz/posts/parlamentimiz-a-i-iy-demokratiya-maktabiga-aylanishi-islo-ot-12-07-2017>
6. Sobirovich, T. B. (2020). The strategy of renewal of the national spirituality of Uzbekistan. International Journal of applied research, 6(5), 147-151.
7. Turdiyev, B. S. (2019). The role of national harmony in the strategy of spiritual renewal. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(6), 229-233.